

SURXON-SHEROBOD VOHASIDA YANGI YERLARNI O'ZLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ MIGRATSION JARAYONLARNING TARIXSHUNOSLIGI

Qulboshev Sirojiddin Jumayevich

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası mudiri,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0009-0000-7115-0230>

qulboshevsirojiddin40@gmail.com

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxon-Sherobod vohasida XX asrning ikkinchi yarmida yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonlari bilan bog'liq migratsion siyosatning tarixshunoslik jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy adabiyotlar qiyosiy yondashuv asosida o'rganilib, migratsiya jarayonlarining talqin etilishidagi metodologik farqlar aniqlanadi. Sovet davri adabiyotlarida migratsiya asosan iqtisodiy modernizatsiya va irrigatsiya tizimlarini rivojlantirishning ijobiy natijasi sifatida yoritilgan bo'lsa, mustaqillik davri tadqiqotlarida uning majburiy ko'chirish, demografik o'zgarishlar va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq jihatlarini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Surxon-Sherobod vohasi, migratsiya, yangi yerlarni o'zlashtirish, sovet agrar siyosati, demografik jarayonlar, ko'chirish siyosati, tarixshunoslik, mustaqillik davri.

Аннотация: В данной статье анализируются историографические аспекты миграционной политики, связанной с освоением новых земель в Сурхан-Шерабадской долине во второй половине XX века. В исследовании на основе сравнительного подхода рассматриваются научные труды, созданные в советский период и в годы независимости, и выявляются методологические различия в интерпретации миграционных процессов. В литературе советского периода миграция в основном освещалась как положительный результат экономической модернизации и развития ирригационных систем, тогда как в исследованиях периода независимости раскрываются её аспекты, связанные с принудительным переселением,

демографическими изменениями и социальными проблемами.

Ключевые слова: Сурхан-Шерабадская долина, миграция, освоение новых земель, советская аграрная политика, демографические процессы, политика переселения, историография, период независимости.

Abstract: This article analyzes the historiographical aspects of migration policy related to the development of new lands in the Surkhan-Sherabad oasis during the second half of the 20th century. Based on a comparative approach, the study examines scholarly works produced during the Soviet period and the years of independence, identifying methodological differences in the interpretation of migration processes. In Soviet-era literature, migration was mainly presented as a positive outcome of economic modernization and the development of irrigation systems, whereas studies from the independence period reveal aspects related to forced resettlement, demographic changes, and social issues.

Keywords: Surkhan-Sherabad oasis, migration, land development, Soviet agrarian policy, demographic processes, resettlement policy, historiography, independence period.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonning janubiy hududlaridan biri bo'lgan Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonlari keng ko'lamda amalga oshirildi. Ushbu jarayonlar asosan sug'oriladigan yer maydonlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oshirish hamda paxta yetishtirish hajmini ko'paytirishga qaratilgan sovet agrar siyosatining tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Natijada vohada yirik

irrigatsiya inshootlari barpo etilib, cho‘l va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish jarayoni jadallashdi.

Mazkur jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda migratsion siyosat ham faollashdi. Yangi o‘zlashtirilgan hududlarga aholining ko‘chirilishi, mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi hamda turli hududlardan kelgan aholining joylashtirilishi vohaning demografik tarkibida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Shu bois Surxon-Sherobod vohasidagi migratsion jarayonlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va etnodemografik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mavzu tarixshunoslik nuqtai nazaridan ham dolzarb bo‘lib, sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Sovet davri tadqiqotlarida yangi yerlarni o‘zlashtirish va migratsiya jarayonlari asosan ijobiy, davlat siyosatining muvaffaqiyatli natijasi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, mustaqillik yillarida ushbu jarayonlarning majburiy ko‘chirish, demografik o‘zgarishlar hamda ijtimoiy oqibatlari kengroq tahlil etila boshlandi.

Shu nuqtai nazardan, Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq migratsion jarayonlarning tarixshunosligini o‘rganish ushbu masalaning ilmiy talqinidagi o‘zgarishlarni aniqlash, mavjud adabiyotlarni tizimlashtirish hamda mavzuga oid ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish imkonini beradi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq migratsion jarayonlar tarixshunosligi sovet davridan boshlab murakkab va ko‘p qatlamli ilmiy muammo sifatida shakllangan bo‘lib, uning tahlili nafaqat iqtisodiy jarayonlarni, balki siyosiy-ideologik yondashuvlar evolyutsiyasini ham o‘z ichiga oladi. Tahlil qilingan adabiyotlar asosida ushbu mavzuning tarixshunosligi ikki asosiy bosqichda rivojlanganligi aniqlanadi: sovet davri (1946–1991) va mustaqillik davri (1991-yildan hozirgacha). Har ikki bosqichda migratsiya jarayonlarini yoritish metodologiyasi, manbalar talqini va ilmiy xulosalar sezilarli darajada farqlanadi.

Sovet davri tarixshunosligida Surxon-

Sherobod vohasida yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayoni asosan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, irrigatsiya tizimlarini kengaytirish va paxta yetishtirish hajmini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat sifatida talqin qilingan. Bu yondashuvda I.R. Mullajonov (1967) asarlarida[1,2] migratsiya jarayonlari mehnat resurslarining hududlararo taqsimlanishi sifatida ko‘rib, demografik o‘shish va aholi harakati davlat rejalashtirish tizimining natijasi sifatida baholangan. A. Ro‘ziyev (1967)[3], D.A. Bichkov va L.I. Blinnikov (1970) [5] hamda A. Choriyev va M. Ochilov (1974) ishlari esa vohada qishloq xo‘jaligining kengayishi, yangi xo‘jaliklarning tashkil etilishi va iqtisodiy o‘shish jarayonlarini ijobiy dinamika sifatida yoritgan.

I. Xalikov (1971, 1977)[6] Surxon-Sherobod vodiysida irrigatsiya tizimlarining shakllanishi va sug‘oriladigan yerlarning kengayishini batafsil tahlil qilib, texnik-iqtisodiy yondashuvni ustuvor qo‘ygan. X.M. Jalilov (1971)[7] paxtachilik sovxozlari iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalarini ko‘targan bo‘lsa, I. Safarov (1974)[10] demografik-geografik tahlil asosida aholi joylashuvi va o‘shish dinamikasini o‘rgangan. L.P. Maksakova (1986, 1989)[13] esa migratsiya jarayonlarini umumittifoq mehnat resurslari siyosati bilan bog‘lab tahlil qilgan.

Shu bilan birga, sovet davri adabiyotlarining umumiy metodologik xususiyati shundaki, migratsiya jarayonlari deyarli har doim rejalashtirilgan, ixtiyoriy va ijobiy jarayon sifatida talqin qilingan. I.R. Mullajonov, G.R. Asonov[5] va boshqa mualliflarning ishlari statistik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslangan bo‘lib, migratsiyaning ijtimoiy ziddiyatlari, ko‘chirish jarayonidagi majburiylik elementlari va mahalliy aholining ijtimoiy moslashuv muammolari yetarlicha yoritilmagan. Bundan tashqari, irrigatsiya loyihalarining ekologik oqibatlari, yer resurslarining degradatsiyasi va suv taqchilligi kabi masalalar ham ilmiy tahlildan chetda qolgan.

Mustaqillik davri tarixshunosligida esa mazkur masalaga nisbatan tub metodologik o‘zgarish kuzatiladi. S.N. Tursunov (1994)[19,20] qishloq xo‘jaligi rivojlanishining

ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini tahlil qilib, sovet agrar siyosatining tizimli muammolarini ochib bergan. D. Bobojonova (1995)[25] demografik jarayonlarni kompleks tahlil qilib, aholining tabiiy va mexanik harakati o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan. O. Ata-Mirzaev[22], V. Gentshke va R. Murtazayeva (1998)[25] esa migratsiyani etnik va tarixiy-demografik jarayon sifatida o'rganib, uning ko'p millatli jamiyat shakllanishiga ta'sirini ochib bergan.

“O'zbekistonning yangi tarixi” (2000) asarida sovet davridagi agrar siyosat, paxta monokulturasining iqtisodiy va ekologik oqibatlari hamda migratsion siyosatning ijtimoiy natijalari tanqidiy yoritilgan bo'lib, bu ish tarixshunoslikda yangi yondashuvni mustahkamladi. O. Ata-Mirzaev va hammualliflar (2002) urbanizatsiya jarayonlarini tahlil qilib, qishloqdan shaharga migratsiyaning ijtimoiy oqibatlarini ko'rsatgan.

X. Xolmuminov (2007)[31] Surxon va boshqa janubiy viloyatlar misolida sovet mustamlakachilik siyosatining migratsion jarayonlarga ta'sirini tahlil qilib, ko'chirish jarayonlarining faqat iqtisodiy emas, balki siyosiy va majburiy xususiyatlarini ham ilmiy asosda yoritgan. F. Ochildiyev (2011)[32] esa 1950–1960-yillardagi ijtimoiy sharoitlarni o'rganib, migratsiya jarayonlarining aholi turmush darajasiga ta'sirini ko'rsatgan. T.R. Pardayev (2021)[33] va M. Turapova (2021)[34] esa uzoq tarixiy davrni qamrab olib, demografik va ijtimoiy jarayonlarning evolyutsion rivojlanishini tahlil qilgan.

Mustaqillik davri tadqiqotlarining eng muhim ilmiy yutug'i shundaki, migratsiya jarayonlari endi faqat iqtisodiy modernizatsiya vositasi sifatida emas, balki majburiy ko'chirish, etnik transformatsiya, ijtimoiy moslashuv va ekologik muvozanat buzilishi bilan bog'liq kompleks hodisa sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv migratsiyani ko'p omilli tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Shu bilan birga, mavjud tarixshunoslikni chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonidagi ko'chirish siyosatining institutsional mexanizmlari (qaror qabul qilish jarayoni, rejalashtirish bosqichlari, ijro tizimi), ko'chirilgan aholining aniq hududiy joylashuvi,

ularning ijtimoiy moslashuv strategiyalari hamda mahalliy aholi bilan o'zaro munosabatlari hali ham to'liq o'rganilmagan.

Bundan tashqari, migratsion jarayonlarning uzoq muddatli oqibatlari — avlodlararo ijtimoiy o'zgarishlar, madaniy identitet transformatsiyasi, urbanizatsiya jarayonlariga ta'siri hamda ekologik resurslar degradatsiyasi kabi masalalar ham tarixshunoslikda yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Umuman olganda, Surxon-Sherobod vohasidagi migratsion jarayonlar tarixshunosligi sovet davridagi ideologik va iqtisodiy deterministik yondashuvdan mustaqillik davridagi tanqidiy, ko'p omilli va kompleks ilmiy yondashuvga o'tish jarayonini yaqqol ifodalaydi. Bu esa mavzuning kelgusida mikrotarixiy, manbashunoslik va hududiy statistik tahlillar asosida yanada chuqur o'rganilishini taqozo etadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liq migratsion jarayonlar tarixshunosligini tahlil qilish natijasida ushbu masalaning ilmiy yoritilishi murakkab va ko'p bosqichli evolyutsion jarayonni bosib o'tganligi aniqlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sovet davri tarixshunosligida mazkur jarayonlar asosan iqtisodiy modernizatsiya, irrigatsiya tizimlarining kengayishi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishi nuqtai nazaridan yoritilgan bo'lib, migratsiya davlat siyosatining rejalashtirilgan va ijobiy natijasi sifatida talqin qilingan.

Biroq sovet davri adabiyotlarida migratsion jarayonlarning ijtimoiy ziddiyatlari, majburiy ko'chirish elementlari, demografik keskin o'zgarishlar hamda ekologik oqibatlar yetarli darajada tahlil qilinmaganligi aniqlanadi. Bu esa ushbu davr tarixshunosligining ideologik cheklanganligi va biryoqlama yondashuvga asoslanganligini ko'rsatadi.

Mustaqillik davri tadqiqotlarida esa muammo mazmunan kengayib, migratsiya jarayonlari ko'p omilli ijtimoiy-iqtisodiy va etnodemografik hodisa sifatida o'rganila boshlandi. Ushbu bosqichda sovet agrar siyosatining salbiy oqibatlari, majburiy ko'chirish siyosati, urbanizatsiya jarayonlari

hamda aholining ijtimoiy moslashuv muammolari ilmiy jihatdan chuqurroq tahlil etildi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar Surxon-Sherobod vohasida yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonidagi migratsion siyosatning ayrim jihatlari hali ham to'liq o'rganilmaganligini ko'rsatadi. Xususan, ko'chirish siyosatining institutsional mexanizmlari, hududiy joylashtirish tizimi, ko'chirilgan aholining kundalik hayoti va ijtimoiy integratsiya jarayonlari, shuningdek,

uzoq muddatli demografik va madaniy oqibatlar chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Umuman olganda, Surxon-Sherobod vohasidagi migratsion jarayonlar tarixshunosligi sovet davridagi ideologik yondashuvdan mustaqillik davridagi tanqidiy va kompleks ilmiy yondashuvga o'tish jarayonini aks ettiradi. Ushbu yo'nalishda kelgusida manbashunoslik, mikrotarixiy tadqiqotlar hamda hududiy empirik materiallar asosida yangi ilmiy izlanishlarni davom ettirish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Mullajonov I.R. O'zbekiston aholisining migratsion aloqalari. – T.: O'zbekiston KPMK Birlashtirilgan nashr, 1967.
2. Mullajonov I.R. O'zbekiston aholisi: spravochnik. – T.: Fan, 1967.
3. Ro'ziyev A. Surxon-Sherobod qishloq xo'jaligi. – Toshkent: O'zbekiston, 1967.
4. Bichkov D.A., Blinnikov L.I. Surxondaryo oblasti. II (qisqacha spravochnik). – Toshkent: O'zbekiston, 1970.
5. Asonov G.R. Aholi o'sishi va hayot resurslari. – T.: O'zbekiston, 1970.
6. Xalikov I. Surxon-Sherobod vodiysida irrigatsiya va sug'oriladigan dehqonchilik rivojlanishi (1959–1970 yy.): avtoref. diss. kand. ist. nauk. – Toshkent, 1971.
7. Jalilov X.M. O'zbekistonda paxtachilik sovxozlarining iqtisodiy muammolari. – Toshkent: O'zbekiston, 1971.
8. Rahmonqulov X., Davxonov S. Gullab-yashnayotgan Surxondaryo. – Toshkent: Bilim, 1974.
9. Choriyev A., Ochilov M. Surxondaryo oblasti. – Toshkent: O'zbekiston, 1974.
10. Safarov I. Surxondaryo viloyati aholisi (demografik va geografik tahlil): avtoref. diss. kand. geog. nauk. – Toshkent, 1974.
11. Karimov A. Cho'l va odamlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1978.
12. Xalikov I. Surxon-Sherobod vodiysida sug'orish va irrigatsiya tarixi. – Toshkent: Fan, 1977.
13. Maksakova L.P. O'zbekiston aholisi migratsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1986.
14. Tashpulatov X. SSSR xalqlarining janubiy O'zbekistonda irrigatsiya va yerlarni o'zlashtirishdagi hamkorligi (1971–1980 yy.): avtoref. diss. kand. ist. nauk. – Toshkent, 1987.
15. Maksakova L.P. O'zbek SSRda bandlikning demografik muammolari. – Toshkent: O'zbekiston, 1989.
16. Shukurov I. Uch avlod quvonchi. – Toshkent: Mehnat, 1989.
17. Berdiyev X. Birinchi odam viloyati. – Toshkent: Nur, 1991.
18. Mirzayev Z. O'zbekistonda qishloq madaniy hayoti (1960-yillar – 1970-yillar o'rtasi): avtoref. diss. dokt. ist. nauk. – Toshkent, 1991.
19. Tursunov S.N. O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlanish shartlari va pasayish omillari (1946–1965 yy.). – Toshkent: Fan, 1994.
20. Tursunov S.N. Qishloq aholisining uy-joy va maishiy sharoitlari muammolari (1946–1965 yy.). – Toshkent, 1994.
21. Bobojonova D. O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning xususiyati. – Toshkent: Fan, 1995.

22. Ata-Mirzaev O. O'zbekiston aholisi: demografik vaziyat va siyosat. – Iqtisod va hisobot, 1996. №8.
23. Bo'riyeva M. O'zbekistonda oila demografiyasi. – Toshkent: Universitet, 1997.
24. Babajanova D.B. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar (1970–1980-yillar o'rtasi): avtoref. diss. dokt. ist. nauk. – Toshkent, 1997.
25. Ata-Mirzaev O., Gentshke V., Murtazayeva R. O'zbekiston ko'p millatli: tarixiy-demografik aspekt. – Toshkent: Ibn Sino, 1998.
26. O'zbekistonning yangi tarixi. II kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.
27. Ata-Mirzaev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliev A. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining tarixiy-demografik ocherklari. – Toshkent: Universitet, 2002.
28. Tursunov S.N., Qobilov E.O. va boshq. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004.
29. Bobojonova N. Totalitar tuzumning kam sonli millatlarga nisbatan siyosati (1930–1960 yy.). – Ijtimoiy fikr, 2004. №3.
30. Yunusova X. O'zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari. – Toshkent: Zarqalam, 2005.
31. Xolmuminov X. Sovet mustamlakachilik siyosatining migratsion jarayonlarga ta'siri (janubiy viloyatlar misolida, 1946–1990 yy.): diss. avtoref. – Toshkent, 2007.
32. Ochildiyev F. O'zbekistonning 50–60-yillardagi ijtimoiy holati (Qashqadaryo va Surxondaryo misolida): diss. avtoref. – Toshkent, 2011.
33. Pardayev T.R. O'zbekiston janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1945–1991 yy.): DSc diss. avtoref. – Termiz, 2021.
34. Turapova M. O'zbekiston janubiy hududlarida demografik jarayonlar (XIX asr II yarmi – XX asr I yarmi): PhD avtoref. – Termiz, 2021.